



**Orqa miya shikastlanishidan keyingi reabilitatsiya: zamonaviy
yondashuvlar va istiqbollar**

Davranov Eshboy Egamqulovich

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot
markazining Samarqand filiali, Nur tashxis bo'limi

Kirish:

Orqa miya shikastlanishi (OMS) dunyo miqyosida nogironlikka olib keluvchi eng og'ir asoratlardan biridir. Ushbu shikast oqibatida harakatlanish, sezgi va ichki a'zolar faoliyati jiddiy buziladi. Zamonaviy davolashning asosiy vazifasi — bemorni hayotini saqlab qolish bilangina cheklanmay, balki uni imkon qadar tezroq mustaqil hayotga qaytarishga qaratilgan reabilitatsiya dasturlarini yo'lga qo'yishdir.

Maqsad:

OMS dan so'nggi funksional reabilitatsiya usullarining samaradorligini o'rganish hamda zamonaviy texnologiyalar va ko'p tarmoqli yondashuvlarning ahamiyatini baholash.

Metodlar:

2018–2024 yillarda PubMed, Scopus, Web of Science va Cochrane bazalaridagi ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Tadqiqotlar ichida erta mobilizatsiya, ekzoskelet yordamida mashg'ulotlar, funksional elektr stimulyatsiyasi, virtual reallik (VR), miya-kompyuter interfeysi (BCI) va neyromodulyatsiya metodlari o'rganildi. Yakuniy tahlilga 124 ta maqola kiritildi.

Natijalar:

Reabilitatsiyani jarohatdan so'ng dastlabki 6–8 hafta ichida boshlash natijalarni sezilarli yaxshilaydi. Ko'p sohalik yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar



kundalik hayotga moslashuvni va harakat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Robototexnika, VR va BCI kabi innovatsion usullar neyroplastiklik jarayonlarini rag'batlantirib, tiklanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa:

OMS dan keyingi funksional reabilitatsiya erta, individual reja asosida va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash orqali samarali bo'ladi. Kelajakdagi yo'nalishlar orasida neyroreparativ terapiyani robotlashtirilgan mashg'ulotlar va neyromodulyatsiya bilan uyg'unlashtirish ustuvor ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: orqa miya shikastlanishi, funksional reabilitatsiya, innovatsion texnologiyalar, neyroplastiklik, ko'p tarmoqli yondashuv.